

“TASDIQLAYMAN”

Davlat test markazi jamoatchilik
kengashi raisi

 I. Mirzaaliyev

“20” yanvar 2023-yil

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi
Davlat test markazi qoshidagi Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
2023-yil 20-yanvardagi
4-son yig‘ilish
BAYONNOMASI**

2023-yil 20-yanvar

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: I. Mirzaaliyev – Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari

KUN TARTIBI

1. Davlat test markazi tomonidan test sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

F. Mirzayev - Davlat test markazi Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i.

2. Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

A. Sulaymonov - Davlat test markazi Umumta‘lim fanlari bo‘yicha test topshiriqlarini shakllantirish bo‘limi boshlig‘i.

3. Davlat test markazida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati bo‘yicha 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

K. Yusupov - Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi rahbari.

4. Jamoatchilik kengashining 2023-yil uchun ish rejasiga takliflar kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi qoshidagi Jamoatchilik kengashi raisi Mirzaaliyev Ikboljon Mirzakarimovich yig‘ilishni ochib berdi va yig‘ilish a‘zolarini kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi. Kun tartibidagi masalalar bir ovozdan ma‘qullandi.

Shundan so‘ng, yig‘ilish raisi kun tartibidagi **birinchi masala** yuzasidan so‘z yuritib, bosh boshqarma boshlig‘i F. Mizayevning axboroti eshitildi.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida **52 turdagi** test sinovlari o‘tkazilib, ularda **2 mln. nafardan** ortiq talabgor ishtirok etdi.

Jumladan:

2022-yil 25-yanvardan 9-fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni tugatayotgan **22 000 nafarga** yaqin harbiy xizmatchilarning jangovar va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligini aniqlash bo‘yicha test sinovlar o‘tkazildi;